

ISHLAB CHIQRARISH OMILLARI CHEKLANGAN SHAROITDA MAHSULOT ISHLAB CHIQRARISHNI MAKSIMALLASHTIRISH MASALASI.

Ustoz: Raxmatullayev Umarbek .

Shogirid: Ikromova Mushtariy .

Toshkent davlat iqtisodiyot
Universiteti To'rtko'l fakulteti
2 – kurs talabasi .

Anatatsiya : [Iqtisodiyotda](#) ishlab chiqarish omillari, resurslar yoki kirishlar ishlab chiqarish jarayonida mahsulot ishlab [chiqarish](#) uchun ishlatiladigan narsadir, ya'ni [tovarlar](#) va [xizmatlar](#). Turli xil ma'lumotlarning ishlatilgan miqdori ishlab [chiqarish funksiyasi](#) deb ataladigan munosabatlarga muvofiq mahsulot miqdorini aniqlaydi. Ishlab chiqarishning to'rtta asosiy [resurslari](#) yoki omillari mavjud: er, mehnat, kapital va tadbirkor (yoki korxona). omillar, shuningdek, tez-tez "iste'mol tovarlari" deb etiketlanadigan iste'molchilar tomonidan sotib olingan tovarlar yoki xizmatlardan farqlash uchun "ishlab [chiqaruvchi tovarlar yoki xizmatlar](#)" deb nomlanadi.

Kalit so'z :ishlab chiqarish ,ishlab chiqarish funksiyasi, ishlab chiqarish omillari, o'rtacha va chekli mahsulotlar ,izokvanta ,izokvanta kartasi ,izokosta .

1.Ishlab chiqarish – korxonalarining faoliyatining asosiy turi bo'lib, bu jarayon cheklangan resurlardan foydalangan holda amalga oshiriladi. Ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori, ushbu tovarlarni ishlab chiqarish uchun sarflanadigan resurslar hajmidan va ishlab chiqarishdan foydalanilayotgan texnologiyaning holati va darajasiga bog'liqdir.

Ishlab chiqarish – bu kerakli mahsulotlarni tayyorlash uchun ishchi kuchidan, uskuna va texnologiyalardan, tabiiy resurslardan hamda materiallardan ma'lum miqdorgadi kombinatsiyada foydalanish jarayonidir. Masalan, o'z ish joyiga ega shaxs

ishlab chiqarish uchun ishchi kuchidan, kapital va xom-ashyolardan foydalangan holda mahsulot tayyorlay oladi.

2.Yer; Kapital; Xom-ashyo; Axborot; Ishchi kuchi; Tadbirkorlik qobiliyati.

3. Ishlab chiqarish funksiyalari -Sarflanadigan ishlab chiqarish omillari miqdori safri foydalangan holda maksimal ishlan chiqariladigan mahsulot miqdori o'rtasidagi bog'likni ishlab chiqarish funksiyasi orqali ifodalash mumkin.

Ishlab chiqarish funksiyasi foydalaniladigan har bir ishlab chiqarish omillari sarfi majmuasidan maksimal Q miqdorda mahsulot ishlab chiqarishni ko'rsatadi. Agar omillar majmuasi kapital, mehnat va materiallardan iborat bo'lsa, ishlab chiqarish funksiyasi quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

$$Q = f (K, L, M)$$

Q – berilgan texnologiyada maksimal ishlab chiqilgan mahsulot miqdori;

K – kapital; L – mehnat; M – materiallar.

4.O'rtacha va chekli mahsulotlar -Ma'lum vaqt oralig'ida jami ishlab chiqarilgan mahsulotni umumiy mahsulot desak, o'rtacha mahsulot – umumiy mahsulotni ushbu mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan o'zgaruvchan ishlab chiqarish omillari sarfiga nisbati bilan aniqlanadi: $AP=Q/F$

Q – umumiy mahsulot miqdori; AP – o'rtacha mahsulot; F – sarflangan resurslar.

Chekli mahsulot – o'zgaruvchan resurslar kombinatsiyasi kichik miqdorda qo'shimcha sarfi hisobidan umumiy mahsulotning o'sgan qismiga aytiladi. Masalan, ishlab chiqarishda bitta omil, ya'ni faqat mehnat sarflansa chekli mahsulot $MP(L)$ quyidagicha aniqlanadi:

$$MP(L)=\Delta Q / \Delta L.$$

ΔQ – qo'shimcha birlik mehnat sarfi ΔL hisobiga ishlab chiqarilgan qo'shimcha mahsulot miqdori.

Agar ishlab chiqarishda mehnat sarfi o'zgarmas bo'lib, mahsulot ishlab chiqarish faqat kapitalga bog'liq bo'lsa, chekli mahsulot $MP(K)$ ga teng:

$$MP(K)=\Delta Q / \Delta K$$

Delta Q – bir birlik qo‘shimcha kapital sarfi hisobidan ishlab chiqarilgan qo‘shimcha mahsulot; delta K – bir birlik qo‘shimcha sarflangan kapital.

5.Izoqvanta -Bu bir xil hajmdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta'minlaydigan ishlab chiqarish omillari sarflari kombinatsiyalarini ifodalovchi egri chiziqlar.

6.Izakvanta qartasi -Bu izokvantalar majmuasidan iborat bo‘lib, ularning har bir ma'lum ishlab chiqarish omillari sarflari kombinatsiyalariga to'g'ri keluvchi izokvantaga yuqori mahsulot ishlab chiqarish hajmi to'g'ri keladigan maksimal ishlab chiqarish hajmini o'zida akslantiradi.

Izokvantalar firmalarda mahsulot ishlab chiqarishning variantlari ko'pligini ko'rsatadi. Bu firmalar uchun muhim axborot bo'lib, mahsulot ishlab chiqarishda xarajatlarni minimallashtiradigan yoki foydani maksimallashtiradigan omillar sarfi kombinatsiyalarini tanlashga imkon beradi.

7.Izokosta -Bu ishlab chiqarish xarajatlarini ifodalovchi chiziq bo'lib, umumiy qiymati bir xil bo'lgan ikkita ishlab chiqarish omillari sarflarining barcha kombinatsiyalarini ifodalovchi nuqtalarni o'z ichiga oladi, ya'ni umumiy qiymati bir xil bo'lgan mehnat va kapital sarflari kombinatsiyalarni ifodalovchi nuqtalarni o'z ichiga oladi.

Agar firmaning ishlab chiqarish omillariga sarflanadigan byudjetni S deb olsak, ishchi kuchi $W \cdot L$ va kapital sarfini $r \cdot K$ desak, izokostani ifodalovchi tenglamani quyidagicha yozamiz:

$$C = W \cdot L + r \cdot K$$

Firmaning ishchi kuchiga sarfi bilan kapitalga sarfi yig'indisi uning umumiy xarajati S ga teng.

Xulosa .

Agar ishlab chiqarish omillari cheklangan bo'lsa, eng to'g'ri yondashuv — resurslardan maksimal samarali foydalangan holda, eng yuqori marjinal foyda beradigan mahsulotlarni tanlash va agar imkon bo'lsa — mahsulotlar kombinatsiyasini optimallashtirish.

Bundan tashqari, resurslar oqimini va ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish — masalan, mashina-soat, mehnat, xomashyo va hk. holatlarida reja tuzish muhim. Bu bilan ishlab chiqarish quvvati ham maksimal darajada ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyot .

1. Pindyck S. Robert, Daniel I. Rubinfeld. Microeconomics. Global Edition. Pearson Education Limited, 2018. P. 787.
2. Campbell R. McConnell, Stanley L. Brue, Sean M. Flynn. Microeconomics: Principles, Problems and Policies. -19 th ed. – New York. The McGraw-Hill Companies, Inc., 2015. P. 604.
3. Андреу Мас-Колелл и др. Микроэкономическая теория. Учебник. – М.: Дело и Сервис, 2016. - 630 с.
4. Тарануха Ю.В. Микроэкономика. Учебник. – М.: Дело и Сервис, 2011. - 580 с.
5. Пиндайк Р., Рубинфильд Д. Микроэкономика. / Пер. с англ. – СПб.: Питер, 2011. - 608 с.
6. Нуриев Р.М. Курс микроэкономики: учебник/ 2-е изд. – М.: Норма, 2012. - 576 с.
7. Salimov B.T., Yusupov M.S., Salimov B.B. Mikroiqtisodiyot. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2019. - 365 b.